



**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKADAN DARS DAN TASHQARI
MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH.**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich metodikasi kafedra si
o'qituvchisi Xakimova Nargiza Bahodirovna*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15256151>

Annotatsiya. Bu maqolada zamonaviy matematikaning o'rni va ahamiyati ochib berilgan bo'lib boshlang'ich sinf o'quvchilarning matematika fanini o'qitishda yuzaga keladigan yutuqlarga asoslangan. Dars jarayonini qiziqarli o'tkazish va bolalarni darsga bo'lgan qiziqishini oshirish yangidan yangi natijalarga erishishga asosidir.

Kalit so'zlar: yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta'lim, metodlar, innovatsiya, integratsiya, muammoli metod.

Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari (to'garak, matematika kechasi va boshqa turlari);

o'zlashtirmaydigan o'quvchilar bilan ishlash; o'quvchilar uy vazifalari, uni tashkil qilishga qo'yilgan talablar; xatolar ustida ishlash, o'quvchilar bilimni tekshirish metodlari; Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida

Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish. Mantiqiy tushunchalar.

“Shakli bir xil”, “shakli har xil” tushunchalari. “Barchasi”, “ayrimlari”, “...dan tashqari barchasi”, “har qanday”, “ixtiyoriy”, “...lardan biri”, “barchasidan biri” va ularning ma'nolari. Matematik xossalari.

Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish. Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash. Matematikani chuqurlashtirib o'qitish xususiyatlari. Oz komplektli maktablarda matematika o'qitishni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonda oz komplektli maktablarning mavjudlik holati. Mustaqil ishni to'g'ri tashkil etishda o'quv topshiriqlarining mufassal ishlanmalarini eslatmalar yordamida beradi.

Mustaqil ishlash usullari bilan bolalarni o'qituvchi maktabdagi birinchi darslaridan boshlab tanishtira boshlaydi. Dastlab bu topshiriqlar kichik hajmli va ergashish xarakterida bo'ladi. Masalan, “Sen ham shunday qil” o'yini.

Bu fikrlash uquvini shakllantiradi, matematik nutqni rivojlantiradi, kuchsiz o'quvchilarning materialni yaxshiroq tushunib olish va hamma qatori o'z muvaffaqiyatlaridan quvonishlariga imkon yaratadi.

O'zbekistonda Respublikasida tog'li va cho'l joylarda kichik – kichik va uzoq aholi yashaydigan punktlar mavjud bo'lib, bu joylarda bir sinfga belgilangan me'yordan ancha kam bo'lgan 6-7 yoshli bolalar bo'lganda oz komplektli maktablar ochiladi. Oz komplektli maktab shunday maktabki, unda bir o'qituvchi bir vaqtda bir necha sinf bilan ishlaydi. Bu sinfda o'quvchilar soni 3 tadan 30 tagacha bo'lishi mumkin.

Bir o'qituvchi hamma (I-IV) sinflar bilan bir vaqtda ishlaydigan maktab **bir komplektli maktab** deyiladi.

Ikkita o'qituvchi 4 ta sinf bilan ishlaydigan maktab **ikki komplektli maktab** deyiladi.

Ikki komplektli maktabda 4 ta sinfni birlashtirishning quyidagi variantlarini amalga oshirish mumkin:

1) ***I va II sinflar: III-IV sinflar.***

2) ***I-III va II-IV sinflar.***

Ikki komplektli maktabda bir o'qituvchi ikkita sinf bilan ishlaydi. Demak, o'quvchilar soni, tayyorligi, o'quv imkoniyatlarini hisobga olib birlashtirish ham mumkin.

Hozirgi paytda respublikamizda asosan bir komplektli maktablar ko'pchilikni tashkil qiladi.



Oz komplektli maktabda ishlash o`qituvchi va o`quvchilar uchun bir qator qiyinchiliklar va to`siqlar bilan bog`liq.

1. O`qituvchi har kuni darsga tayyorlanishi va turli fanlardan eng kamida 8 soat dars o`tishi kerak. Oz komplektli maktabda reja tuzish ancha murakab, har kuni 8-16 ta reja ustida ishlash qiyin va ko`p vaqt talab qilishi bilan, pedagogik samara beradigan bir butun qilib birlashtirish zarurligi bilan farq qiladi. Bularning hammasi o`qituvchidan tegishli bilimlarni bilishdan tashqari, maksimal darajada kuch-g`ayrat, uyushqoqlik, sabr va qat'iylik talab qiladi.

2. O`qituvchining bir necha sinfga diqqat e'tiborini taqsimlashi qiyin.

3. O`qituvchi butun sinf bilan darsning yarmi yoki $\frac{1}{4}$ qismi davomida shug`ullanishga, qolgan vaqtda o`quvchilar bilan mustaqil ishlashni tashkil qilishga to`g`ri keladi.

4. O`quvchilar mustaqil ish bajarishayotganda, darhol o`qituvchidan yordam olish imkoniyati yo`q, chunki bu vaqtda o`qituvchi boshqa sinf bilan band bo`ladi.

5. O`quvchilar, boshqa sinf o`quvchilariga xalaqit berishlariga qaramasdan, mustaqil ishlaverishi kerak.

Bu qiyinchiliklar bilan bir qatorda oz komplektli maktab o`quvchilari uchun bir qator afzalliklar ham mavjud:

1. Sinf o`quvchilari sonining kamligi (3-5).

Bu o`qituvchiga tez – tez so`rab turish, o`quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish imkoniyatlarini beradi.

2. Oz komplektli maktab o`qituvchisi daftar tekshirishga oz vaqt sarflaydi.

3. O`quvchilar darsning taxminan $\frac{1}{4}$ qismida mustaqil ishlaydi. Buning o`quv maqsadlaridan tashqari, katta tarbiyaviy ahamiyati ham bor: iroda mustahkamlanadi, uyushqoqlik, ishchanlik, qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf qilish malakasi tarbiyalanadi, o`z – o`zini tekshirish malakalari tarbiyalanadi.

4. Katta sinf o`quvchilari kichik sinf o`quvchilariga yordam berishlari mumkin, chunki ular har kuni bitta sinf xonasida o`qishadi.

To`g`ri tuzilgan dars jadvali o`quv – tarbiya ishi uchun optimal sharoit yaratishda katta ahamiyatga ega. Ilg`or o`qituvchilar tajribalari shuni ko`rsatadiki, hamma sinflarda bir vaqtda matematika darsi bo`ladigan qilib tuzilgan dars jadvali maqsadga muvofiq bo`lar ekan; Bu boshqacha jadval tuzishni istisno qilmaydi.

Keyingi vaqtlarda hamma boshlang`ich sinflar predmetlarini ikki guruhga bo`lish ko`p uchramoqda. Bunda predmetlar guruhlarga kiritish uchun shu predmetlarning mustaqil ish uchun imkoniyatlari mezoni bo`lib hisoblanadi.

1- guruhga matematika, grammatika, mehnat, tasviriy san'at kiradi, chunki bu predmetlarda qolganlariga nisbatan mustaqil ish uchun imkoniyatlari kattadir.

Hamma sinflarda matematika darslarining kombinatsiyalari sermahsulroqdir. Bunda birinchi sinfdan ikkinchi sinfga o`tishda o`z diqqat – e'tiborini o'tkazish oson, bir jinsli material mustaqil ishlar vaqtida o`quvchilar e'tiborini kamroq tortadi. Bundan tashqari, hamma sinf o`quvchilari uchun umumiy ish tashkil qilishga sharoit yaratiladi **Masalan:** og`zaki mashqlar o'tkazish vaqtida doskada yozilgan sonlarni bir necha birlik orttirish (I sinf), bir necha marta orttirish (II sinf), 10, 100, 1000 ga ko`paytirish (III sinf), 2 xonali songa ko`paytirish (IV sinf) taklif qilinadi. O'lchashlar o'tkazishda beriladigan topshiriqlar bir xil bo`lib, har qaysi o`quvchida mavjud bo`lgan to`g`ri to`rtburchak burchak bo`yi va enini o'lchashdan iborat bo`lishi mumkin.

to`g`ri to`rtburchak burchakning eni bo`yidan necha sm qisqa (I sinf).

II sinf o`quvchilari – uning perimetrini topadi.

III sinf – yuzasini topadi.

IV sinf – berilgan yuza va tomonlaridan biri bo`yicha to`g`ri to`rtburchak burchakning tomonini topadilar.

Ayrim maktablarda dars jadvali tuzish quyidagicha amalga oshiriladi:



1-yarim yilda 1-2 darslar faqat 1- sinflarda bo'ladi.

Buning uchun bir kunda 6 soat dars o'tish kerak, vaqtni ham 30 minutgacha qisqartirish kerak.

Masalan: dushanba:

Ko'rinib turibdiki, 1- ikkita dars I sinfda, 3-4 darslar tig'iz. 4- darsdan keyin 1- sinflarga javob beriladi.

Dars nomeri	Dushanba
1	I
2	I
3	I-IV
4	I-IV
5	II-IV
6	II- IV

Darslarni rejalashtirish ham oz komplektli maktabda ish tashkil qilishni aniqlab beruvchi omillardan biridir. Tematik – rejalar namunalari «Boshlang'ich ta'lim» oynomasi sahifalarida berib boriladi. O'qituvchi rejani tuzishda o'z sinfining xususiyatlariga asoslangan holda ishlab chiqadi. Reja hamma sinf uchun birga tuziladi. Bunda katta darsda kichik - kichik darslar hosil bo'ladi.

O'qituvchi reja tuzishda bu kichik darslarning mazmunini aniqlashdan tashqari, bu ish darsning qaysi bosqichida, qancha vaqt, qaysi metodlardan foydalanishni ham o'ylashi kerak.

Bir vaqtda o'tkaziladigan bir predmetli darsning taxminiy sxemasini keltiraylik.

I – sinfda Ayirish (mustahkamlash).

II- sinfda Sondan yig'indini ayirish (mustahkamlash).

III – sinfda 100 ichida sonlarni og'zaki nomerlash (yangi).

IV – sinfda 2 xonali songa bo'lish mavzular bo'yicha (yangi material).

Oz komplektli maktablarda boshqa tipdagi darslar ham mavjud: a) hamma sinflarda yangi materialni o'rganish; b) hamma sinflarda mustahkamlash, takrorlash, bilimlarni tekshirish darslari bo'lishi mumkin.

osh xususiyatlariga mos tarixiy ma'lumotlarni o'zlashtirishi mazmuni.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Karimov.I.A. “O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” T-O'zbekiston 1995 y 74 bet

2.Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Adolat gazetasi 2011 yil 1 sentabr № 38 son.

3.Бикбаева. Н.И. Левенберг. ,Л.Ш. “2-сифда математика” Т-“Укитувчи” 1988 й 343-бетлар

4.Бабанский.Ю.К “Хозирги замон умумий таълим мактабида укитиш методлари” Т-Укитувчи 1990 й 227 бет

Jumayev.M. va b.q. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” T-2005 y 312 b